



## SHAXS EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA FAN TA'LIM-TARBIYA TIZIMINING O'RNI MASALALARI

*Ostanov J.E.*

*SamDVMCHBU o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** ekologiya, ekologik madaniyat, ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, globallashuv, global muammolar, ekologik muammolar.

**Ключевые слова:** экология, экологическая культура, экологическое образование, экологическое образование, глобализация, глобальные проблемы, экологические проблемы.

**Key words:** ecology, ecological culture, ecological education, ecological education, globalization, global problems, ecological problems.

### **Резюме:**

Maqolada shaxs ekologik madaniyatini shakllantirishda fan ta'lim-tarbiya tizimining o'rni haqida so'z boradi. Bundan asosiy maqsad, yoshlarda tabiatni sevish, uni muhofaza qilish, tabiat nematlaridan oqilona foydalanish kunikmalarini hosil qilishdan iboratdir. O'tgan asrda ishlab chiqarish va transportning, shuningdek boshqa sohalardagi intensiv rivojlanish atmosferaning ifloslanishiga olib keldi. Natijada turli ekologik muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Buni oldini olishning eng samarali usuli esa ekologik ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish hisoblanadi.

### **Резюме:**

В статье говорится о роли системы научного образования в формировании экологической культуры человека. Основная цель – сформировать у молодежи навыки любить природу, беречь ее и разумно использовать ее блага. В прошлом веке интенсивное развитие производства и транспорта, а также других сфер привело к загрязнению атмосферы. В результате это вызвало различные экологические проблемы. Самый эффективный способ предотвратить это – правильно внедрить экологическое образование.

### **Summary:**

The article talks about the role of the science education system in the formation of the ecological culture of a person. The main purpose of this is to create the skills of young people to love nature, protect it, and use nature's blessings wisely. In the last century, the intensive development of production and transportation, as well as other areas, led to atmospheric pollution. As a result, it caused various environmental problems. The most effective way to prevent this is to properly implement environmental education.

**Kirish.** Bugun dunyo shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Taraqqiyotning bugungi bosqichida dunyo globallashuv jarayonlari bilan bog'liq. Ilm-fanning rivojlanishi insoniyatning ijtimoiy hayot-faoliyatida qulaylik va yengilliklar

yaratmoqda. Insoniyatning mavjudligi bevosita tabiat bilan dialktik bog‘liq hisoblanadi. Insonning tabiat resurslaridan unumli foydalanish uchun eng avvalo ilm-fan yutuqlaridan foydalanishi zarur. Shuningdek insoniyat tabiatga nisbatan aql bilan munosabatda bo‘lishni taqozo qiladi. Tabiatda muvozanatning buzilishi turli ekologik muammolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Bugun insoniyatning tabiatga shiddatli munasobati oqibatlariga guvoh bo‘lib turibmiz. Natijada turli mintaqaviy va global ekologik muammolar yuzaga kelayotganligini ham anglab turibmiz. Bu kabi global muammolar tabiatga ekologik omillarni hisobga olmagan holda munosabatda bo‘lish natijasida o‘tgan asrning ikkinchi yarmida avj ola boshlagan edi. Bugunga kelib esa bu muammolar global muammolarga aylanib bo‘ldi. Ta’kidlash joizki, uzoq yillar mobaynida tabiatga yetkazilgan ta’sir oqibatida tabiiy muvozanatga putur yetdi. Bugungi kunga kelib esa, insoniyatning ertangi taqdiri va kelajagi aynan ana shunday masalalarni hal etish bilan bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Zero O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasida “Barchamiz bir oddiy haqiqatni qat’iy va aniq anglab olishimiz kerak. Bundan buyon O‘zbekiston ekologik harakati yangi sifat bosqichiga ko‘tariladi, yuksak deputatlik minbaridan turib atrof muhitni muhofaza qilish masalalarini o‘rtaga qo‘yish va nazorat qilish, insonni va mamlakat aholisini ekologiyaning xavfli hamda tajavvuzkor o‘zgarishlaridan himoya qilish uchun ulkan imkoniyatlarni qo‘lga kiritadi”

Ekologik muammolar yechimini faqat mutaxassislar – ekologlar, menejerlar, huquqshunolar, muhandislar, qonun chiqaruvchilarning say-harakatlari yoki jamiyatning kuchli institutlari ta’minlashi mumkin emas. Ekologik xavfsizlikni yaxshilash maqsadiga samarali natijalarga erishish uchun ijtimoiy yoki madaniy holatidan qat’iy nazar, barcha insonlar birdek faol ishtirok etishi zarur. Ayni chog‘da ekologik muammolarni hal etishda tejamkorlik ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, tabiatni muxofaza qilish tadbirlarini izchil olib borish yoki sohaga oid qonunchilikni yanada takomillashtirish, targ‘ibot tashviqot ishlarini kuchaytirishni taqozo etmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Mamlakatimizda barcha jabhalar qatorida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida to‘laqonli huquqiy-me’yoriy baza yaratildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunlar hamda boshqa qator hujjatlar ekologik ta’lim-tarbiya tizimining huquqiy asosini tashkil etadi. Ta’kidlash joizki, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi



Qonunining 4-moddasida tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish uchun barcha turdagi ta'lim muassasalarida ekologiya fanini o'qitishning majburiyatini ta'minlash mustahkamlab qo'yilgan. Shubhasiz, atrof-muhit musaffoligiga erishish va ekologik muammolarning oldini olishda aholining, ayniqsa, yosh avlodning ekologik madaniyatini oshirish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 12 iyul kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatalari, siyosiy partiyalar hamda O'zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videoselekt yig'ilishidagi ma'ruzasida ham bu masalaga alohida to'xtalib o'tdi. Prezidentimiz "...Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muruvvat, unga dahldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin" deb ta'kidlagan edi.

Shaxs ekologik madaniyatini yuksaltirish, atrof-muhitga oqilona munosabatda bo'lish, tabiat nematlaridan oqilona foydalanib, kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash hissini shakllantirish, inson omili ta'sirining oldini olish, fan va ekologik ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasidir. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2019 yil 29 maydagi "O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorining qabul qilinganligi ekologik ta'lim-tarbiyaning ahamiyatini yana bir bor belgilab berdi.

**Natija va muhokama.** Yoshlarda ekologik bilim, ong va madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirish, ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, shuningdek, ekologiya sohasidagi ilm-fanni jahonning ilg'or innovasion texnologiyalarini jalb etgan holda yanada takomillashtirish bugungi kunning eng asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Ekologik ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad insonni tabiat va unda sodir bo'layotgan voqiyliklarga qiziqtirish, inson va tabiat o'rtasida yuzaga kelayotgan muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash, ularning yechish yo'llari bo'yicha aniq chora-tadbirlar topish, yetarli ekologik bilimga ega bo'lgan holda atrof muhit muhofazasini ta'minlashdir. Ekologik ta'lim-tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat: **birinchidan**, jamiyat va tabiatning rivojlanish qonunlari, ular o'rtasidagi munosabatni chuqur o'rganish va zamonaviy fikrlay oladigan shaxslarni tayyorlash; **ikkinchidan**, ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish va ishlab chiqarish kuchlarini yo'naltirishda turli tabiiy hududlarning ekologik holatini biladigan va kelajakning ekologik rejasini tuzadigan avlodni tayyorlash; **uchinchidan**, har bir inson, jamiyat va jamiyat ichidagi turli guruhlar, toifalar, sinflarning o'zlari yashab turgan tabiat, uning boyliklarini saqlashga xizmat

qiladigan yoshlarni yetishtirish; **turtinchidan**, jamiyat a'zolariga o'zlarining ijtimoiy, madaniy, diniy qarashlari va urf-odatlarini rivojlantirishda yashab turgan joy, hudud guzalligi, uning inson hayoti va salomatligidagi ahamiyatini tushuntirish ishlarini olib borish; **beshinchidan**, har bir shaxs e'tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish orqali ona tabiatning qayta tiklanmas manbalarini saqlab qolishga bo'lgan mas'uliyatini kuchaytirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimida ekologik ta'lim quyidagi ta'lim turlariga muvofiq holda amalga oshiriladi deb belgilab berilgan. Bular, maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; oliy va o'rta maxsus hamda oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.

Yangi taraqqiyot bosqichida ta'lim mazmunining yil sayin o'zgarib, takomillashib borishi ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan shaxslar oldiga ham yangicha talablar qo'yimoqda. Ana shu talablarga ahamiyat qaratgan holda ta'lim jarayonida, ta'lim oluvchilarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirishning turli usullaridan foydalanish lozim. Bunda quyidagilarga ahamiyat qaratish zarur:

- ta'limning ekologik ilmiy-nazariy darajasini oshirish;
- ta'limni muloqot shaklida tashkil etib, ta'lim oluvchilarning ekologik tafakkurini, erkin fikrlashini rivojlantirish;
- ta'lim oluvchilar bilan doimiy ravishda ekologik muammolar mavzusida davra suhbatlari, ilmiy-amaliy anjumanlar, uchrashuvlar o'tkazish;
- ta'lim oluvchilarda hayotni anglashga qiziqish hissini o'stirish, inson va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatni to'g'ri yo'lga qo'yish kunikmalarini shakllantirish;

Shuni ta'kidlash kerakki, atrof-muhitni muhafaza qilishda, insoniyat tabiatning rivojlanish va hayot qonunlarini bilmasdan tabiiy ofatlarning sabablari va oqibatlarini oldindan aniqlay olmaydi. Insonlarni ushbu falokatlardan xalos etish uchun, avvalo ilmiy-amaliy va boshqa metodlardan foydalangan holda oliy va o'rta ta'lim muassasalarida ekologiyaga oid amaliy mashg'ulotlar o'tgazish lozim. Ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar tabiatni muxofaza qilishda, yo'qolib ketish xafi ostida bo'lgan flora va faunaning ba'zi turlarini tiklashda, o'rmonlar bog'lar, qo'riqxonalar yaratishda katta ahamiyatga ega. Boshqa fanlardan farqli o'laroq ekologiya sohasidagi amaliy bilimlar eng xavfli global ofatlarning oldini olishga hissa qo'shadi va hayotimizning asosi bo'lib, kelajak avlodlar uchun zamonaviy biosferada tinch hayot kechirish



uchun sharoit yaratadi. Ekologiyani o'rganishda samarali shakllaridan biri bu tadqiqot faoliyati bo'lib, bu jarayonda shaxs tabiat bilan bevosita aloqada bo'ladi, ilmiy eksperiment o'tkazish kunikmalari hosil bo'ladi va ekologiyani kuzatish kunikmalari rivojlanadi, muayyan ekologik muammolarni o'rganishga qiziqish uyg'onadi.

**Xulosa.** Ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish uta murakkab jarayon. Ekologik madaniyat ishlab chiqarish, siyosat, huquq, san'at va ta'limning muvofiqlashtirilgan ta'siri bilan ta'minlanadi. Ekologik madaniyatni shakllantirish insonning individual ehtiyojlarini o'zlashtirishga olib keladi, chunki shaxs ekologik fikrlasa shunga mos tarzda harakat qiladi. Ekoogik ta'lim tarbiya orqali vatanimiz tabiati, ekotizimlari, atrof-muhitni izdan chiqishidan asrashga hamda aholining barcha qatlamlarini ekologik madaniyatini oshirishga salmoqli hissa qo'shadi. Biz ishonamizki kelajakda shaxs ekologik madaniyatini shakllantirishda ta'lim-tarbiya tizimi yanada takomillashadi.

#### Adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1- жилд. -Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
2. Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамиятини барпо этиш устувор мақсадимиздир.-Т.: «Ўзбекистон», 2010,
3. Ҳошимова Э.С. Экология проблемасида глобал ва зонал муносабатлар. – Тошкент.: Фан, 1986
4. Ашрапов М. Экологик дунёкараш.//“Ўзбекистон экология хабарномаси” 2005.
5. Sattorov, M., & Ostono, J. (2023). Yangi O'zbekistonda yoshlarning estetik didini rivojlantirishda maishiy turmush estetikasining o'rni va ahamiyati. Talqin va tadqiqotlar, 1(35).
6. Ostanov, J. E. (2023). Milliy qadriyatlar va yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirish. Educational Research in Universal Sciences, 2(17), 327-331.
7. Sattorov, M., & Ostono, J. (2023). Tabiatni falsafiy anglash zarurati, va uning o'ziga xos xususiyatlari. pedagogs, 47(2), 116-120.
8. Makhmudov L. Y., Ostono, J. Ijtimoiy taraqqiyotda milliy identifikatsion jarayonlarning dolzarblashuv muammolari. 2023.
9. Makhmudov L. Y., Ostono, J. Fuqarolik jamiyatini shakllanishida huquqiy madaniyatni rivojlantirish omillari. – 2023.
10. Kurbanovna, S. D. (2023). go'zalik va ulugvorlik kategoriyalarining ijtimoiy-falsafiy tahlili. barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 3(10), 96-98.
11. Suvanova, D. (2023). socio-philosophical analysis of the significance of religious values in the formation of aesthetic culture among young people. евразийский журнал медицинских и естественных наук, 3(1 part 1), 108-115.
12. Суванова, д. к. (2020). проблемы исследования исторического сознания молодежи. in научные исследования: проблемы и перспективы (pp. 206-210).
13. Kurbanovna, S. D., & Mustafakulovich, K. S. (2022). The Role of Aesthetic Culture in Educational Processes. Open Access Repository, 8(04), 208-210.